



MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASH - SHAXS MA'NAVIY BARKAMOLLIGI MEZONLARI SIFATIDA

Po'latov Dj.A.

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida
dotsenti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)*

Tayanch so'zlar: milliy o'zlikni anglash, millatlararo totuvlik, Vatan, xalqaro terrorizm, ekstremizm, radikalizm, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, internet, jahon axborot tarmog'i, madaniyat, g'oyaviy, axborot xurujlari, mafkuraviy immunitet.

Ключевые слова: осознание национальной идентичности, межнациональное согласие, Родина, международный терроризм, экстремизм, радикализм, духовность, духовное образование, Интернет, мировая информационная сеть, культура, идеологические, информационные атаки, идеологический иммунитет.

Key words: awareness of national identity, interethnic harmony, Motherland, international terrorism, extremism, radicalism, spirituality, spiritual education, Internet, global information network, culture, ideological, information attacks, ideological immunity.

Davlat barqarorligiga qarshi qaratilgan tahdidlarning mavjudligini inobatga olsak, talaba yoshlarni hayotning barcha jabhalarida Vatanini, yurtini, moddiy va ma'naviy boyliklarini, xalqini himoya qilishga tayyor turadigan, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi, ularning salbiy mohiyatini tushunib etadigan, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, o'z burchi va Vataniga sodiq qoladigan ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Buning uchun:

- talabalarni ta'lim jarayonida milliy o'zlikni anglash, millatlararo totuvlikni ta'minlash, yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- O'zbekiston manfaatlarini nafaqat ta'lim sohasida, balki yurt uchun fidoyi bo'lish bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar



orqali yoshlar ongiga singdirib borish ustuvor vazifa sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorida "ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish" masalalariga alohida urg'u berib o'tilgan. [1] Haqiqatdan ham Yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida yoshlarimiz ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarimoqda, tajribalarimizga asoslanib aytishimiz mumkinki, hanuzgacha ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida:[3]

– ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

– oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

– targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

– el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korruptsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

– madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

– geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorism, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada

xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilab berilgan.

Haqiqat ko'zgusi bilan qaraganda ma'naviyat ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etuvchi omillardan biridir. Olimlar tomonidan ma'naviyat tushunchasining mazmun mohiyatini talqin etishda turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, "Ma'naviyat" tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin. Fikrimizcha, bu masala bo'yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir – biridan farq qiladigan fikr–mulohazalarni uchratganda bundan taajjublanmasdan ularning qaysi muallifning o'ziga xos dunyoqarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilish o'rinlidir.[4]

O'zbek tilining izohli lug'atida ma'naviyat axloqiy holat, barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar sifatida talqin etilib, insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy tasavvurlari va tushunchalar majmuidir deyilgan. SHuningdek, mazkur lug'atda ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir, u yo'q joyda hech qachon baxt saodat bo'lmaydi deya izoh berilgan. Shunga ko'ra aytish mumkinki, ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, mafkuraviy immunitetini boyitish zaruriyatini ko'rsatmoqda. [8]

Shu nuqtai nazardan qaraganda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish sifatini yaxshilash maqsadida Oliy ta'lim tizimida monitoring o'tkazishning dolzarbligi oshmoqda. Mazkur jarayonda tarbiya qonuniyatlaridan foydalanib ma'naviy-ma'rifiy tadbir dastur va rejalarini alohida baholash mezonlari doirasida talabalarning qiziqishlari va bugungi kun islohotlari talabidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy, umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarni singdirish orqali ularda yuksak ma'naviyat va ma'naviy qashshoqlashuvning inson va jamiyat hayotidagi mohiyatni tushunib etish hamda yuksak ma'naviyatga ega bo'lish malakalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa:

- talaba ma'naviyat nima ekanligini teran anglab etishi, ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlarni bilishi, ma'naviy va moddiy hayotning uyg'unligini, ma'naviy yuksalishda milliy g'oyaning rolini, ma'naviyatning jamiyat yangilanishida rolini, islohotlar hamda ularning mezonlarini tushunishlari va ularni turmushda qo'llay bilishi;

- talaba shaxs va jamiyatning ma'naviy yuksalishi, uning kamoloti darajasi pirovard natijada millatning ma'naviy salohiyatini belgilashini nazarda tutib, ajdodlarimiz yaratgan benazir ma'naviy merosimizni har taraflama



va chuqur o'zlashtirishi, uning mazmun mohiyatini va g'oyaviy-falsafiy asoslarini bilishni uslub va uslubiyatlari haqida ko'nikmalarga ega bo'lishi ;

– talaba hozirgi globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlarni bilishi, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurash olib borish lozimligini;

– inson qalbiga yo'l topish, ma'naviy kamolot ekanligini va mamlakat ravnaqi yo'lida fidoiylik jasorat ekanligini anglab etishi hamda g'oyaviy kurashish usullarini hayotda qo'llay olishi muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat jarayonini tashkil etish qoidalari, globallashuv va texnogen tsivilizatsiya talablaridan kelib chiqib, xududiy imkoniyatlarni inobatga olgan holda davriy kuzatishlarda ta'lim monitoringi vazifalari qatorida quyidagilarni kiritish zarur:

– ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish uchun mavjud bo'lgan shart-sharoitlardan kelib chiqib, tadbirlarni tashkil etish vaqti, mavzulari, manzilini (talabalar turar joyi, ma'naviyat xonasida, universitet faollar zalida, universitet hovlisida shuningdek mahallalarda, tashkilotlarda) monitoringi;

– ta'lim sohasida kechayotgan islohotlarni ma'naviy-tarbiyaviy faoliyat jarayoniga tatbiq etish infratuzilmasini (“Besh muhim tashabbus doirasi”da talabalar iqtidor va qiziqishlariga qarab, festivallarga va ko'rik tanlovlarga) monitoring qilish va xaritalash;

– tarbiyaviy faoliyat jarayonida uchraydigan salbiy jarayonlar dinamikasini o'rganish (talabalar orasi bilib bilmay diniy aqidaparastlik oqimiga tushib qolgan, devinat xulq-atvorga moyil);

– universitetda “nosog'lom muhit oqimiga tushib qolgan” talabalarni aniqlash;

– tarbiyaviy, ma'naviy ishlarni loyihalashtirishni axborotlashtirish;

Yuqorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, fikrimizcha, milliy o'zlikni anglash, millatlararo totuvlikni ta'minlash - shaxs ma'naviy barkamolligi mezonlari va ustuvor yo'nalishlari sifatida, O'zbekiston Respublikasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, talaba yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan quyidagi tadbirlarni tashkil etish ijobiy samara beradi. Bular:

– mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga etkazishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini tashkil etish;

– dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritish, terrorism,

diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommiy madaniyat” va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g’oyaviy kurash olib borishga oid tadbirlar uyushtirish;

– jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to’sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar — korruptsiya, mahalliychilik, loqaydlik va ota-onalarning yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizligi kabi holatlarga barham berishga qaratilgan tadbirlar tashkil etish;

– ma’naviy-ma’rifiy targ’ibot ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot tadbirlar;

– yoshlarda sog’lom dunyoqarash, jumladan kitobxonlik ko’nikmasini shakllantirish, internet, axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish va ularda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar;

– xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an’alarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa yoshlar o’rtasida dinlararo bag’rikenglik, millatlararo totuvlik va o’zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga doir tadbirlar;

– mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ushbu yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo’lga qo’yishga qaratilgan tadbirlar;

– mamlakatimizda keng nishonlanadigan bayramlar va boshqa sanalarda keng aholi orasida amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar.[5]

Mazkur tadbirlar tarbiyaviy ahamiyatga molik bo’lib, talabalarda milliy o’zlikni anglashning pedagogik shart - sharoitlarini ishlab chiqish zaruriyatini belgilaydi. Talaba milliy o’z-o’zini anglash tushunchasining mazmun mohiyatini bilish jarayonida:

– ona tiliga, tug’ilib o’sgan zaminiga, o’z milliy ma’naviyati, tarixi, merosi, urf-odatlar, an’alari va qadriyatlariga mansubligini tushunib etishi, ularni o’zlashtirish va rivojlantirish yo’lida g’amxo’rlik ko’rsatishi;

– o’zbek millatining jahon tsivilizatsiyasida tutgan o’rnini, milliy ehtiyojlari mohiyatini tushunish va uning manfaatlarini amalga oshirishda fidoiylik ko’rsatish har bir millat vaqilining ma’naviy burchi ekanligini;

– milliy manfaatlarni tushunish milliy o’z-o’zini anglash ekanligini qalban his etishi ;

– mamlakatda yashayotgan turli millat va elatlar vaqillariga, ularning qadriyatlariga, urf-odatlariga, an’alariga, meroslariga, tarixlariga hurmat bajo keltirish, ular bilan do’stona hamda insoniy munosabatlarni o’rnatish



millatlararo totuvlikni ta'minlovchi omil va shaxs yuksak ma'naviy fazilati ekanligini bilishi;

– milliy o'z-o'zini anglash millat abadiylikini ta'minlovchi omil ekanligini bilishi muhim ahamiyatga ega.

Siyosatshunos S. Otamurodov fikricha milliy - ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash har bir vatandoshimiz ongida vatanparvarlik, ona Vatanimizning chegara daxlsizligini asrash, xalqparvarlik, o'z xalqi, Vatani manfaatlari yo'lida fidoyilik, uning barqarorligini, nufuzini asrashda mas'ullik, g'urur, iftixor, yoshlarimizni yovuz g'oyalar tajovuzidan himoya qilish mamlakatimizda ma'naviy - ruhiy yuksaklikni ta'minlash zarurligini anglab etishdek muhim vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Ma'naviyati qashshoq inson, millat va xalqda ana shu tuyg'ular mavjud bo'lmaydi, u ruhan tushkunlikka muhtalo bo'lgan, o'zgalarga itoatkor, ularning orqasidan yuradigan bo'lib qoladi. [7]

Yuqoridagi olimlarimizning mushohadalari va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Oliy ta'lim tizimida ma'naviy–ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish jarayonida talabalar ijodiy tafakkurni rivojlantirish, uyg'unlashtirilgan mashg'ulotlar bilan birgalikda integrallashtirilgan ikki komponentli mashg'ulot loyihalaridan foydalanish talabalarida:

– hayot voqea - hodisalaridagi milliy ma'naviy an'ana va qadriyatlarimizni his qila olishi, tushunishi, ularni idrok eta olishi, undan faxrlanishi va ma'naviy etuk shaxs sifatida jamiyatda tutgan o'rnini anglashi;

– tevarak atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarning ma'naviy qimmatini baholay olishi;

– ma'naviy-ma'rifiy qonuniyatlarga rioya qilgan holda yashashga ehtiyojning va talabning mavjudligi;

– ma'naviy-ma'rifiy milliy qadriyatlarni ko'paytirish;

– ma'naviy-ma'rifiy sohaga doir o'z bilimini takomillashtirib borishda muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2023. –<https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori. <https://lex.uz/uz/docs>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/acts/5344692>

4. Kinjaeva G. S Talabalarni kasbiy - pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2020



5. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili; monografiya. - T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2020. -184 b
6. Musurmanova O. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug’ati. / o’zbek, rus, ingliz tillarida - T.: “TURON - IQBOL”, 2019, -844 b
7. Otamurodov S. “Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik”(siyosiy-falsafiy tahlil). T.: “O’zbekiston” 2013 – 3 b
8. O’zbek tilining izohli lug’ati: 80000dan ortiq so’z va so’z birikmasi. J-III-N-Tartibli/ -T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 563 b

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada talabalarni ta’lim jarayonida milliy o’zlikni anglash, millatlararo totuvlikni ta’minlash, yon-atrofimiz va jahonda ro’y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko’nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari ilmiy -nazariy jihatdan yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В этом состоянии и в процессе образования учащиеся осваивают навыки понимания национальной идентичности, обеспечения межнационального согласия, подхода к политическим и социальным процессам, создания мира, в котором работают люди, работы со своими национальными интересами, идеологической чувствительности к различным внутренним и внешним угрозам. Появляется формирование вопросов с научной и теоретической точки зрения.

SUMMARY

In this state and in the process of education, students master the skills of understanding national identity, ensuring interethnic harmony, approaching political and social processes, creating a world in which people work, working with their national interests, and ideological sensitivity to various internal and external threats. The formation of questions is explained from a scientific and theoretical point of view.